ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

ANIQ VA TABIIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika
Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

№ 1/1 (137)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 1-son (137/) ANIQ VA TABIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

ANIQ FANLAR

SH.A.ALIMOV - O‘zFA akademigi
S.N.LAKAYEV - O‘zFA akademigi (SamDU)
M.M.MIRSAIDOV - O‘zFA akademigi
A.S.SOLEEV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.IKROMOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
B.X.XO‘JAYAROV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
A.G.YAGOLA - f.-m.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I.I.JUMANOV - f.-m.f .d., professor (SamDU)
X.X.XUDOYNAZAROV - t.f.d., professor (SamDU)
ALBERTO DEL BIMBO - Florensiya universiteti professori, Italiya
L.SABIROV - f.-m.f .d., professor (SamDU)
A.JUMABOYEV - f.-m.f .d., professor (SamDU)
N.N.NIZAMOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
O.Q.QUVONDIQOV - f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.RAXMATULLAYEV - f.-m.f .d., professor
A.SH.YARMUXAMEDOV - f.-m.f.n., (SamDU)
X.S.XAYDAROV - f.-m.f .n., dotsent (SamDU)

TABIY FANLAR

M.X.ASHUROV - O‘zFA akademigi
N.B. FERAPONTOV - k.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
SH. M. TUGIZOV - professor, Koliforniya universiteti, AQSh
H. I. AKBAROV - k.f.d., professor (O'zMU)
E. A. ABDURAXMONOV - k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV - k.f.d., professor (SamDU)
L. A. BULAVIN - Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
X. Q. XAYDAROV - b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV - b.f.d., professor (SamDU)
Sh. T. XOLIQULOV - g.f.d., professor (SamDU)
S. B. ABBASOV - g.f.d., professor (SamDU)
Q. S. YARASHEV - g.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK - Seul univeriteti professori, Koreya
D.B.XURSANOV - g.f.f.d., dotsent (SamDU)
M. S. QUZIYEV - b.f.f.d., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA

Faraz Mehmood, Soleev A. *New generalization of ostrowski-grüss like inequality on time scales*……..	2-9
Alimov A.A. *On the properties of solutions of a nonlinear filtration problem with a source and multiple nonlinearities*.....	10-17
Axatov A.R., Tojiyev M.R. *Fazo-vaqt tahlili va tayanch vektor mashinasi asosida yong'inni tezkor aniqlash algoritmi*……	18-25
Байжуманов А.А. *Проблемы минимизации специальных дизъюнктивных нормальных форм сложных конъюнкций высказываний систем нелинейных булевых уравнений*……	26-30
Djuraev A.S., Obidov A.E. *Pedagogik kadrlar malakasini oshirish uchun moslashuvchan elektron ta'lim tizimini modellashtirish*	31-39
Иванов А.К., Мухамедов А.К., Шаронов И.А., Эшбуриев Р.М. *Об измерении радиоактивности мукомольно-крупяной пищевой продукции*.....	40-46
Ishankulov A.F., Tursunova N.R., Ergasheva D.R., Khalilov K.F., Galyametdinov Y.G., Mukhamadiyev N.K. *Obtaining semiconductor CdS, CdSe AND CdSe/ZnS core/shell nanoparticles and their composites with polymers*……	47-51
Шодиев Д.С., Хайруллаев М., Махмудов Ш. *О задаче коши для бигармонического уравнения* ……	52-57
Рахматуллаев И.А., Ботиров Х.З., Курбонов А.К., Хайдаров Х.С., Ахмедова Ш.Ш, Абдирахматова М.П. *Способ регистрации слабых оптических сигналов с помощью резонаторных кювет и импульсно-периодических лазерных источников*……	58-65
Jo'rakulov I.T., Umrzoqov F.B. $Ge_2Sb_2Te_5$ *yupqa qatlam plyonkalarining solishtirma kontakt qarshiligini o'rganish*……	66-71
Ikromova D.I. *On the sharp estimates for the fourier transform of measures supported to surfaces related with* E_8 *type singularities*……	72-83
Arziqulov M.M., Shermuxamedov U.A. *Urganch shahri iqlimiy ko'rsatgichlarining o'zgarishi va atmosfera gazlari konsentratsiyasiga bog'liqligi*.....	84-88
Komilova N.K., Maxmudov B.X. *Geokriminogen vaziyat va uni tadqiq etishdagi yondashuvlar*……	89-94
Fayzullayev N.I., Tillayev S.U., Mamirzayev M.A. *Metandan nanouglerod va vodorod olish reaksiyasi tezligiga turli omillarning ta'siri*.....	95-101
Djabbarov O.R., Zaripova A.R., Sodiqova U.U. *Divergent ko'rinishdagi biologik populyatsiya sistemalarining avtomodel yechimlari asimptotikasi*....	102-106
Tursunova N.G., Musulmanov N.H., Fayzullaev N.I. *Mezog'ovakli uglerod sintezining maqbul sharoitini tanlash*……	107-116
Бурнашев В.Ф., Кайтаров З.Д. *Численное исследование многофазной фильтрации в деформируемой пористой среде с учетом внешнего воздействия*……	117-130
Turayeva B.I., Kutliyeva G.J., Zuhritdinova N.Y., Kamolova X.F., Maxkamov A. *Tokdan ajratib olingan bakteriyalarning uzum fitopatogen mikromitsetlariga nisbatan antifungal xususiyatlari*.....	131-135
Mardonov J.A. *Uch o`lchovli fazoda laplas maydoni uchun karleman formulasi*……	136-140

UDK: 91 **DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v1.1.1868**

GEOKRIMINOGEN VAZIYAT VA UNI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR

N.K.Komilova, B.X.Maxmudov
O‘zbekiston Milliy universiteti
E-mail: ni.komilova@nuu.uz

Annotasiyasi. Ushbu maqolada jinoyatchilik geografiyasining tarkibiy qismi bo’lgan geokriminogen vaziyat tushunchasi va uni ilmiy adabiyotlarga qo’llanishi, uning asosiy yo’nalishlari hamda hududlarni geokriminogen vaziyatiga qarab zonalarga ajratishda jahon tajribasi tahlil qilingan. Hududlarni geokriminogen zonalarga ajratishda qanday jihatlarga e’tibor berish to’g’risida olimlarning olib borgan tadqiqotlari o’rganilib, muallifning takliflari ham keltirilib o’tilgan. Jinoyatlikka qarshi kurashda, huquqni muhofaza qilishchi organlarni to’g’ri joylashtirish va tashkillashtirishda hududlarni ma’lum geokriminogen zonalarga ajratib o’rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: geokriminogen vaziyat, jinoyatchilik sabablari, shart-sharoitlari, omillari, geokriminogen rayon, geokriminogen zona.

Геокриминогенная ситуация и подходы к ее исследованию

Аннотация. В данной статье анализируются понятие геокриминогенная ситуация, являющаяся составной частью географии преступности, и его приложение к научной литературе, его основные направления, а также мировой опыт деления регионов на зоны исходя из геокриминогенной обстановки. Изучено исследование, проведенное учеными, на какие аспекты следует обратить внимание при делении территорий на геокриминогенные зоны, а также представлены авторские предложения. В борьбе с преступностью, в правильном размещении и организации правоохранительных органов научное и практическое значение имеет изучение регионов путем разделения их на определенные геокриминогенные зоны.

Ключевые слова: геокриминогенная ситуация, причины, условия, факторы преступности, геокриминогенный район, геокриминогенная зона.

Geocriminogenic situation and approaches to its research

Abstract. This article analyzes the concept of geocriminogenic situation, which is an integral part of the geography of crime, and its application to scientific literature, its main directions, as well as the world experience of dividing regions into zones based on the geocriminogenic situation. A study conducted by scientists was studied, what aspects should be paid attention to when dividing territories into geocriminogenic zones, and the author's proposals were also presented. In the fight against crime, in the correct placement and organization of law enforcement agencies, the study of regions by dividing them into certain geocriminogenic zones is of scientific and practical importance.

Key words: geocriminogenic situation, causes, conditions, crime factors, geocriminogenic area, geocriminogenic zone.

Kirish. Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida jinoyatchilik va uni oldini olishga qaratilgan ishlar keng ko’lamda amalga oshirilmoqda. Insonlarning tinch yashashi, dam olishi, mehnat qilishi bir so’z bilan aytganda, sog’lom ijtimoiy muhitni yaratish mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-400-sonli “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 18-fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy va ma'naviy muhitni yaxshilash, kelgusida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5938-sonli farmonining imzolanishi ham aynan shu maqsadni ko’zlagan. Biroq, bunday say-harakatlarga qaramasdan mamlakatimizning ba’zi bir viloyat va tumanlarida

jinoyatchilikning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Bunday holat, tabiiyki, ijobiy emas unga qarshi choralar ko'rish kerak. Jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashishni amalga oshirishda hududning geografik o'rni, demografik va geoekologik holati, iqtisodiyot tarmoqlari, ularning rivojlanganligi, hududiy tarkibini e'tiborga olmoqlik maqsadga muvofiq bo'ladi. Binobarin, jinoyatchilikning hududlar bo'yicha holati va unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil etmasdan turib hududlarda jinoyatchilikka qarshi profilaktik tadbirlar tashkil etish maqbul bo'lmaydi. Mazkur masalalarni o'rganishda sotsial geografiyaning yosh tarmoqlaridan bo'lgan jinoyatchilik geografiyasining ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. Xususan hududlarni geokriminogen vaziyatidan kelib chiqib zonalarga ajratish masalalari soha mutaxasislari tomonidan e'tibor kuchaygan.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Geokriminogen vaziyat tushunchasining muomilada keng qo'llanilishi, vujudga kelishi va tarixi uncha boy emas. 1994-yilda dastlab, K.T.Rostov "geokriminogen vaziyat mintaqadagi jinoyatchilik holati, uni belgilovchi ijtimoiy-geografik omillar majmuasi bilan bog'liq holda baholanadi" degan fikrni ta'kidlab, ushbu tushunchasini muomilaga kiritish zarurligini asoslab berdi [1,25-b].

D.V.Fedorenko [2] geokriminogen vaziyat faqat ijtimoiy geografik omillar majmuasi bilan baholashni o'zi yetarli emas, ijtimoiy-iqtisodiy va geodemografik vaziyatini ham inobatga olishni takidlaydi.

A.Soliyev, E.Raxmatov (1999) fikricha esa geokriminogen vaziyat jinoyatchilik geografiyasining asosiy tushunchasi bo'lib, uning shakllanishida bir qator shart-sharoit va omillar majmui yotadi. O'z navbatida ushbu sharoitlar jinoyatchilikning turi va tarkibiga tasir o'tkazib o'ziga xos vaziyatni hosil qiladi [3,118 -b].

A.A.Qayumov (2006) tadqiqotlarida "geokriminogen vaziyat jinoyatchilik geografiyasining muhim bir qismi sifatida turli hududlarda jinoyatchilik holati hamda jinoyatlarga ta'sir etuvchi shart-sharoit va omillar, kriminogen vaziyatning hududiy xususiyatlarini o'rganadi" degan fikrga kelgan.

Fikrimizcha, geokriminogen vaziyat jinoyatchilik tarkibi, hududiy farqlari va ularni shakllanishida omillarning hududiy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Kriminogen vaziyat geokriminogen vaziyat tushunchasidan farqli ravishda u jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillar sifatida faqat huquqni muxofaza qiluvchi organlarning holati, intensivligi, jinoyatchilikka ta'sirini ifodalaydi, asosan ijtimoiy-huquqiy tomonlariga etibor beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Jinoyatchilik – geografik omillar" bog'liqligini komplekslilik, hududiylik va davriylik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadigan tushuncha "geokriminogen vaziyat" tushunchasidir. Bu yerda "geo" nafaqat jinoyatchilikni o'rganishning hududiy jihatlarini, kartografik tahlil qilishni ham ifodalaydi. Shunday qilib, "geokriminogen vaziyat" tushunchasidan foydalanish "kriminogen vaziyat" tushunchasidan geografik jihatlarni aniqroq ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, geokriminogen vaziyat jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o'rganish bilan birga, ayni paytda uning yilning turli mavsum va vaqtlarida sodir etilishi, jinoyat sodir etgan shaxslarning sotsial - demografik tarkibi hamda alohida turdagi jinoyatlarning sharoit va sabablarini ham tadqiq etadi.

Demak, "geokriminogen vaziyat" tushunchasi bir vaqtning o'zida ikkita metodologik yondashuvni asoslashga yordam beradi:

1) geografik omillar va jinoyatchilikning o'zaro munosabatlari;

2) kriminogen vaziyatning hududiy va davriy xususiyatlari.

Kriminogen vaziyatni o'rganishga bunday yondashuv, birinchidan, jinoyatchilik, uning sabablari va sharoitlarini o'ziga xos kriminologik va ijtimoiy geografik xususiyatlariga ega bo'lishi, ikkinchidan, jinoyatchilikni o'rganishda kartografik usullardan keng foydalanish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Geokriminogen vaziyat hududning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, bu tushunchadan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan istiqbolga ega: birinchidan, ijtimoiy geografik sharoit va jinoyatchilikni yagona sabab-oqibat majmuasida o'rganish, hududdagi asosiy ijtimoiy salbiy omillarni aniqlash, ularning ijtimoiy vaziyatiga jinoyatchilik ta'sir

koʻrsatish darajasini aniqlash imkonini beradi; ikkinchidan, geokriminogen vaziyatiga qarab hududlarni rayonlashtirish hududning ijtimoiy (sotsial) rayonlashtirishda katta rol oʻynaydi; uchinchidan, geokriminogen vaziyatni shakllanishi va rivojlanishidagi qonuniyatlarni aniqlash jinoyatchilik prognozlarini, shuningdek, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlari, hududni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish jarayonida muhim rol oʻynaydi.

Turli shakldagi maʼmuriy hududiy birliklarning jinoyatchilik tarkibi, darajasi va dinamikasidagi tafovutlar mavjudligi shubhasizdir. Baʼzida bu farqlar tasodifiy holatlar bilan izohlanadi, ammo umumiy olganda, har qanday sotsial hodisa singari jinoyatchilik bir biriga bogʻliq qator sabablar, shart-sharoitlar va omillarning taʼsiri ostida sodir boʻladi.

Jinoyatchilik sabablari deganda jinoyat sodir etilishi bevosita bogʻliq boʻlgan va uni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-psixologik tomonlari tushuniladi. Ochkoʻzlik, baxllik, tajovuzkorlik, millatchilik, ijtimoiy qoida va meʼyorlarga amal qilmaslik va h.k.lar jinoyatchilikning eng keng tarqalgan sabablari hisoblanadi.

Jinoyatchilik shart-sharoitlari - bu jinoyat sodir etilishiga bevosita sabab boʻlmaydigan, ammo sababni shakllanishi va taʼsir qilish mexanizmlari uchun oʻziga xos "moylovchi" boʻladigan, jinoiy faoliyatni osonlashtiradigan va kuchaytiradigan ijtimoiy hodisalar tushuniladi. Masalan, bozor, savdo rastalarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati maʼlum muddat sustlashi va buning natijasida vujudga keladigan shart-sharoitlar, oʻgʻirlik bilan shugʻullanadigan jinoyatchilarini oʻziga jalb etishi va tajovuz obyektiga aylantirishi mumkin.

Jinoyatchilik omillari K.Y.Sikach fikricha, “muayyan hududdagi huquqbuzarliklarning shakllanishi, tarqalishining xususiyatlari, tarkibi, dinamikasiga bevosita va bilvosita taʼsir qiluvchi yoki taʼsir qilishi mumkin boʻlgan turli darajadagi tabiiy hamda ijtimoiy tizimlardagi hodisa hamda jarayonlarning majmui deb qaralishi kerak”[43-b]. Darhaqiqat, hududning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi, umuman ijtimoiy vaziyatini shu jumladan geokriminogen vaziyatini shakllanishi bir nechta omillarga (iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy va h.k) bogʻliq. Bu omillarni jinoyatchilik bogʻliqligini oʻrganishda tizimli va kompleks yondashish juda muhim. Dastlab, A.Gabiani va R.Gachechilidze [5, 31-b.] tomonidan XX asrning 80-yillari boshlarida shahar va qishloqlarning geografik oʻrni, funksiyasi, aholi soni va dinamikasi, urf odatlari, demografik vaziyati, turar-joylarning xususiyatlari, iqtisodiyot tarmoqlari (aholining bandligi va daromadlari darajasi), migratsiya jarayonlarini jinoyatchilik bogʻliqligi tadqiq etilgan.

Keyinchalik jinoyatchilikka tasir etuvchi tabiiy geografik, ekologik omillar V.Vedyakin va V.Ryabsev, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillar A.V.Kulagin, sotsial geografik omillar R.M.Skabara, K.T.Rostov kabi olimlarning tadqiqotlarida uchraydi.

Geokriminogen vaziyati ogʻir shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarning taʼsirini S.V.Artyomenko, D.V.Fedorenko, S.A.Shotkinov batafsil oʻrgangan. A.D.Badov jinoyatchilikni vujudga kelish omillari toʻgʻrisida har tomonlama va tizimli tahlilini oʻtkazib, ikki guruhga boʻladi. Birinchi tartibli (asosiy) omillarga geokriminogen oʻrin, penitensiarning yuk, narkobiznes, hududning demografik vaziyati, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni, ikkinchi tartibli omillarga esa tabiiy-geografik, aholi joylashuvi va etnik tarkibini kiritadi [6, 29-b]. Olim Rossiyada jinoyatchilikka tasir etuvchi omillar ichida hududning geokriminogen oʻrni boshqa omillarga nisbatan “dominant” deb hisoblaydi.

Oʻzbekistonda jinoyatchilikka taʼsir qiluvchi omillarni oʻrganishda prof. A.Soliyev va A.Qayumov olib borgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular geokriminogen vaziyatga taʼsir qiluvchi omillarni ijtimoiy-geografik, iqtisodiy-geografik, demografik, geoekologik va boshqa omillar guruhiga boʻladi[11].

Fargʻona viloyatining geokriminogen oʻrni va uni jinoyatchilikka tasiri muallif tomonidan tadqiq etilgan boʻlib, unda giyohvand moddalar savdosining yoʻnalishlari, geokonfilkt hududlar, chegarada nazorat oʻtkazish punktlarini joylashuvini jinoyatchilikka tasiri masalalari koʻrib chiqilgan [7].

Yuqorida olimlar tomonidan jinoyatchilikning tur va tarkibiga tasir etuvchi omillarni tushuntirishda asosan, konditsionalistik (1-rasm, A) foydalangan boʻlib, ushbu yondashuv koʻp omilli hisoblanib, ushbu salbiy sotsial hodisaga bir necha omillar tasiri borligi ilgari suriladi.

Konditsionalistik yondashuvdan tashqari bugungi kunda olimlar tomonidan quyidagi yondashuvlar ham umumetirof etiladi:

An'anaviy yondashuv - bunda jinoyatchilikning sababi tashqi kuch ta'siri ekanligi takidlanib, asosan muayyan jinoyatchilik turini sabablarini tahlil etishda qo'llaniladi. Masalan, tashqi kuch tasirlari tarkibida jismoniy va psixologik (ruhiy) omilga asosiy etibor qaratiladi (1-rasm, B).

An'anaviy-dialektik yondashuv. Ushbu yondashuv obyektiv (jinoiy xatti-harakatlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy holatlar, iqtisodiy inqirozlar, jamiyatdagi siyosiy beqarorlik va h.k) va subyektiv omillarni (shaxs ongidagi ruxiy o'zgarishlar) qamrab oladi. Bundan tashqari, ular o'zaro ta'sir qiladi: odamlar hayotining moddiy sharoiti ijtimoiy ongni belgilaydi va u o'z navbatida jinoyatchilikka tasir qiladi(1-rasm, C).

Interaksionistik (ing. "o'zaro tasir") yondashuv. Mazkur yondashuvda jinoiy xulq-atvor va jinoyatning sababi ijtimoiy muhit va jinoyatchi shaxsining o'zaro ta'siridir deb tushuntiradi. Jinoyatchilikka tasir etuvchi ichki (ijtimoiy muxit, jamiyat) va tashqi (aholining siyosiy, iqtisodiy, manaviy turmush sharoiti) omillarining majmuasi ko'zda tutilgan(1-rasm, D).

Soha bo'yicha olimlarning tadqiqotlari, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida geokriminogen vaziyat va jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillar mualliflar tomonidan Farg'ona viloyati misolida o'rganilgan. Hududlarda jinoyatchilikning shakllanishi va holatining butun tizimi geokriminogen vaziyatni vujudga keltiradi, lekin ushbu holat, o'z navbatida, hududdagi ijtimoiy jarayonlariga tasir ko'rsatadi [10].



1-rasm. Jinoyatchilik tasir etuvchi omillarni taxlil etish va tushuntirishdagi yondashuvlar

Geokriminogen vaziyatni o'rganish obyektlari turli ierarxik darajadagi hududlar bo'lishi mumkin. Masalan, mamlakatimizda iqtisodiy rayonlar, viloyatlar, tumanlar va yirik shaharlar, qishloqlar va mahallalar miqyosida o'rganish mumkin. Ushbu hududlarda ijtimoiy iqtisodiy tizim va sharoitlar turlicha. Masalan, Qo'qon va Farg'ona shahri Farg'ona viloyatining g'arbi va sharqida joylashgan yirik shaharlardir. Ushbu shaharlar nafaqat viloyatning, balki butun iqtisodiy rayonda bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'z navbatida bu ikki shaxar atrofidagi qishloq tumanlari aholisi uchun yirik markaz, umumiy bozor vazifasini bajaradi. Natijada shaxarning ushbu qismlarida o'ziga xos geokriminogen vaziyat vujudga kelgan.

Jahonda hududlarni geokriminogen vaziyatiga qarab tasniflanishi tajribasi mavjud. Masalan, Chikago satsiologiya maktabi (bu maktab "Chikago inson ekologiyasi maktabi" sifatida ham yuritiladi) vakillari: Э.Бурресс ва Р.Парк (E.Burgess,R.Park,1925,1967) tomonidan Chikago shahri misolida "shaharning konsentrik zonalari" ajratilgan [9,24-b]. Bunda ular Chikagoning shahar

funksiyasi, ekologik holati, ijtimoiy muammolar (jinoyatchilik, bolalar o‘limi), migratsiya bilan bog‘liq holatlarni hisobga oladi. U 5ta konsentrik zonadan iborat edi (2-rasm): biznes markazi(A), sanoat rayoni (B), o’tish zonasi (C) (sanoat rayoni bilan ishchilar rayoni orasidagi oraliq hudud), ishchilar rayoni (D), asosiy turar-joy hududi (E). Tadqiqotlar natijasida biznes va sanoat rayoni hamda o’tish zonasi eng kriminogen vaziyati og‘ir hudud ekanligi aniqlanadi. Bunday holat rivojlanayotgan sanoat, turar-joy qurilishi bilan izohlanadi. Ushbu hududda insonlar yashashiga ekologik (havo ifloslanishi, shovqin) va ijtimoiy muammolar ta’sir ko‘rsatishi, boy qatlamning boshqa hududlarga ko‘chib o‘tishi kuzatilgan. Shuning uchun, bu hududda past malakali, kambag‘al muhojirlar soni ko‘pchilikni tashkil etgan, ular orasida uyushgan to‘dalar soni anchagina bo‘lgan.



2-rasm. Shaharlarni zonalarga ajratish (E.Burgess,1925).

A.Badov (2009) esa hududning jinoyatchilik darajasi va dinamikasi, ijtimoiy xavflilik darajasi, jinoyatchilik turlari tarkibi (yil davomida sodir etilgan jinoyatlarning umumiy sonida jinoyatning ayrim turlarining ulushi), jinoyatchilikni jalb qiluvchi obyektlar va ularning jinoyatchilik bilan bog’liqligi kabi ko’rsatkichlarni hisobga olib, shaharni geokriminogen anomal, bufer va jinoiy osoyishtalik hududlarga ajratadi. Geokriminogen anomal (A) - bu hudud fonida jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan hudud. Bufer zonasi (B) hududning o'rtacha jinoyatchilik darajasiga yaqin bo'lgan hudud. Jinoiy osoyishtalik zonasi (C) - bu jinoyat darajasi past bo'lgan hudud.



3-rasm. Shaharni geokriminogen vaziyatidan kelib chiqib zonalarga ajratish (A.Badov,2009)

Geokriminogen zonaning eng muhim ko'rsatkichi jinoyatchilik darajasining dinamikasidir. Ushbu ko'rsatkichni aniqlashning zaruriy sharti kamida 5, 10 yoki undan ortiq yil davomida kuzatuv hisoblanadi. Jinoyat darajasining dinamikasiga ko'ra, geokriminogen zona barqaror (jinoyat darajasi amalda o'zgarmaydi), zaif (jinoyatchilik darajasi pasayotgan) va ortib borayotgan (jinoyat darajasi ortgan) sifatida tasniflanishi mumkin.

Geokriminogen zonalar turli taksonomik daraja va darajalarda bo'lishi mumkin. Ular bir vaqtning o'zida bir nechta hududni (ma'muriy birlikni) qamrab olishi, shu bilan birga bitta hududda bir nechta zona joylashishi ham mumkin. Bunda bir yadroli monosentrik, ikki va undan ortiq yadroli polisentrik geokriminogen zona ajtiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, geokriminogen vaziyat jinoyatchilik tarkibi, hududiy farqlari va ularni shakllanishida omillarning hududiy jihatlarini o'zida aks ettiradi. Kriminogen vaziyat geokriminogen vaziyat tushunchasidan farqli ravishda u jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillar sifatida faqat huquqni muxofaza qiluvchi organlarning holati, intensivligi, jinoyatchilikka ta'sirini ifodalaydi, asosan ijtimoiy-huquqiy tomonlariga e'tibor beradi. Hududlarni geokriminigen vaziyatidan kelib chiqib zonalarga ajratishda jinoyatchilik darajasi, dinamikasi, ijtimoiy xavfliligi, jinoyatchilarni jalb qiluvchi hududlarni joylashuvi kabi ko'rsatkichlarni hisobga olish darkor. Geokriminogen zonalarni hududiy ko'lami asosan viloyat, tuman va shahar darajasida bo'lib, zonalar ichida bir biridan farq qiluvchi anomal, bufer, stabil hududlarga ajratish mumkin.

Adabiyotlar

1. Ростов К. Т. Геокриминогенная обстановка в Санкт-Петербурге и Ленинградской области: Дис. ... канд. геогр. наук (11.00.02). СПб., 1994.
2. Федоренко Д.В. Геокриминогенная обстановка в особо крупном промышленном городе (на основе статистических данных по городу Донецку) : дис. ... канд. юрид. наук : 12.00.08 - Донецк, 2000. - 202 с.
3. Солиев А., Рахматов Э. Жиноятчилик географиясининг долзарб масалалари (Тошкент вилояти мисолида). Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 20-жилд.-Т., 1999. 117-120 б.
4. Комилова Н.К., Махмудов Б.Х. Жиноятчиликни географик жихатдан ўрганишнинг хориж тажрибаси. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. 2022. 3(1). 272-275 б.
5. Габиани, А.А., Гачечилидзе Р.Г. Некоторые вопросы географии преступности (на материалах Грузинской ССР). – Тбилиси: Изд-во ТГУ, 1982. – 173 с.
6. Бадов А.Д., География преступности в России в постсоветский период: дис. д-ра геогр. наук : 25.00.24 . – Краснодар, 2009. – 496 с.
7. Махмудов Б.Х. Geocriminogen location of fergana region and its features. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. 2022. 3 (1.1). 260-262 б.
8. Сикач К.Ю. Географические факторы динамики преступности на Украине в 1990-2012 гг.: дис.кон.геогр.наук: 25.00.24 – Симферополь, 2016. – 213 с.
9. Берджесс Э. У. Рост города: введение в исследовательский проект // Чикагская школа социологии: сб. переводов / РАН. ИНИОН. Центр социальных научно-информационных исследований. Отдел социологии и социальной психологии; сост. и пер. с англ. В. Г. Николаев; отв. ред. Д. В. Ефременко. М.: ИНИОНРАН. 2015, 430 с.
10. Komilova N.K., Maxmudov B.X. Farg'ona viloyatida jinoyatchilik turlari va hududiy tafovutlari. География: природа и общество. 2020. № 4. 38-43 b.
11. Қаюмов А.А. Ўзбекистонда жиноятчиликнинг ижтимоий-географик жиҳатлари. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. -Т., 2006. 155 б.